



QISHLOQ XO'JALIGI ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASI BO'YICHA HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

¹Abduraxmanova Azoda Djuraevna

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti
"Hayotiy faoliyat xavfsizligi" kafedrası t.f.n dotsent

²Rasulov Aliakbar Xamidullayevich

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" kafedrası PhD dotsent

³Xusanov Elmurod Shuxratjon o'g'li

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" kafedrası Magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7524347>

ARTICLE INFO

Received: 01st January 2023

Accepted: 10th January 2023

Online: 11th January 2023

KEY WORDS

Mehnat muhofazasi, qishloq xo'jaligi, ish o'rni, imtiyozlar va kompensatsiyalar, shaxsiy himoya vositalari va jamoaviy himoya vositalari, davlat nazorati, mayib bo'lishi, baxtsiz hodisa.

ABSTRACT

Ushbu maqolaning maqsadi qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotgan hodimlarning mehnat muhofazasi qilish bo'yicha huquq va majburiyatlarini tahlil qilish va buni ularga yetkazishdir. Jahon bo'yicha iqtisodiy faol aholining 45,2% qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligidagi baxtsiz hodisalarni kamaytirishning eng dolzarb yechimi qishloq mehnatkashlarining mehnatlari samaradorligi va samaradorligini oshirishga imkon beradigan mehnat sharoitlarini yaratishdir. Bunday mehnat sharoitlarini yaratishda albatta qonun va qonun osti hujjatlariga tayanishimiz kerak bo'ladi. Xodimlarni bu borada o'qitish va qayta tayyorlash qonun bilan belgilap qo'yilgan. Aksariyat hollarda, qishloq xo'jaligidagi qonun buzarliliklar va baxtsiz xodisalar, xodim va ish beruvchi o'rtasidagi nizolar va tushunmovchiliklar o'z huquqlari hamda majburiyatlarini bilmaslik va amal qilmasligi oqibatida yuzaga keladi. Biz ushbu maqolada qishloq xo'jaligi xodimlarining mehnat muhofazasi qilish bo'yicha huquq va majburiyatlarini birma-bir ko'rib chiqamiz va albatta bularni bilishlari baxtsiz xodisalarni kamayishiga bir yechim bola oladi.

Mehnat muhofazasi – bu o'zi shunday tushunchaki bunda, mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimlarini o'z ichiga oladi.



Mehnat faoliyati davomida umumiy mehnat qonunlarini qo'llash qishloq joylarida qiyin va murakkab bo'lishi mumkin, buning sababi esa ish beruvchi va hodimlar o'z huquqlari hamda majburiyatlari haqida bilmasliklari, shunga doir qonun hujjatlar bilan yuzaki tanish yoki umuman xabardor bo'lmasligi sababli o'z huquq va majburiyatlarini aksariyat hollarda bajarishmaydi. Ayniqsa, kichik fermer xo'jaligi va korxonalarida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Va buning natijasida juda kop muammolar yuzaga keladi. O'zbekiston Respublikasida belgilap qoyilgan Mehnat muhofazasi bo'yicha qishloq xo'jaligi hodilarini huquq va majburiyatlarini ko'rip chiqamiz.

Qishloq xo'jaligi xodimlari "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'yicha quyidagi huquqlarga ega:

1. mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning va normativ-huquqiy hujjatlarning talablariga mos bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;
2. ish beruvchidan mehnat sharoitlari to'g'risida, shu jumladan kasb kasalliklari va boshqa kasalliklarga chalinish ehtimoli mavjudligi, shu munosabat bilan o'ziga berilishi lozim bo'lgan imtiyozlar va kompensatsiyalar, shuningdek shaxsiy himoya vositalari va jamoaviy himoya vositalari haqida axborot olish;
3. mehnatni muhofaza qilishga oid belgilangan normalar va talablarga muvofiq ish beruvchining mablag'lari hisobidan shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanish;
4. ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinish;
5. mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida o'z hayoti va sog'lig'i uchun xavf yuzaga kelgan taqdirda, agar shunday holatlar mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan tasdiqlansa, ishlarni bajarishni bunday xavf bartaraf etilguniga qadar rad etish;
6. o'z ish o'rnidagi mehnat sharoitlari hamda muhofazasi mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organ tomonidan tekshirishdan o'tkazilishi uchun so'rovnomma berish;
7. ish beruvchining mablag'lari hisobidan mehnatning xavfsiz uslublari va usullari bo'yicha o'qish;
8. qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni olish;
9. o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetishi munosabati bilan hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini ish beruvchidan undirish;



10. o'z ish o'rnida mehnat qilish uchun xavfsiz sharoitlar ta'minlanishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilayotganda va o'zi bilan sodir bo'lgan baxtsiz hodisa yoki uning kasb kasalligi tekshirilayotganda shaxsan o'zi ishtirok etish yoki o'z vakillari orqali ishtirok etish;
 11. tibbiy tavsiyalarga muvofiq navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan o'tish, ushbu tibbiy ko'rikdan o'tish vaqtida uning ish joyi (lavozimi) va ish haqi saqlanishi;
 12. mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida ish o'zni tugatilgan taqdirda ish beruvchining mablag'lari hisobidan qayta tayyorgarlikdan o'tish.
- Xodim qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.


Xodim "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'yicha quyidagi majburiyatlarga amal qilishi shart:

1. mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishi;
2. shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri qo'llashi;
3. mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar olishi, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan va malaka oshirishdan o'tishi;
4. odamlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'diruvchi har qanday vaziyat to'g'risida, shuningdek ish jarayonida yoki u bilan bog'liq holda sodir bo'lgan har qanday baxtsiz hodisa haqida ish beruvchini darhol xabardor qilishi shart.
5. baxtsiz hodisa yuz berganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini bilish;
6. ish jarayonida foydalanayotgan uskunalar va mexanizmlarning yaroqliligini nazorat qilish;

Xodimning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Quyidagi grafikdan yil va malum bir muddat davomida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalarni korishimiz mumkin. Bu baxtsiz hodisalar asosan xodimning xavfsizlik qoidalari va o'z majburiyatlarini bajarmaganligi sababli sodir bo'ladi.

2022-yilning 6 oyi (yanvar-iyun) davomida qishloq xo'jaligida yuzaga kelgan baxtsiz hodisalar va uning oqibatida jabrlanganlar miqdori.



Baxtsiz hodisalar oqibatida jabrlanganlar		
Halok bo'lgan	Og'ir jarohat olgan	Yengil jarohat olgan
96 ta	284 ta	6 ta
Jami: 366 ta		



O'zbekiston Respublikasi viloyatlari kesimida qishloq xo'jaligi sohasida 2021-yil hamda 2022-yilning 6 oyi davomida baxtsiz hodisa tufaylik halok bo'lganlar soni.

Baxtsiz hodisalar oqibatida halok bo'lganlar			
№	Xudud nomi	2021-yilda	2022-yil 6 oyida
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	10	4
2	Andijon viloyati	18	8
3	Buxoro viloyati	21	12
4	Jizzax viloyati	8	1
5	Qashqadaryo viloyati	17	14
6	Navoiy viloyati	20	9
7	Namangan viloyati	12	4
8	Samarqand viloyati	10	2
9	Sirdaryo viloyati	8	1
10	Surxondaryo viloyati	9	2
11	Toshkent viloyati	27	11
12	Farg'ona viloyati	14	8
13	Xorazm viloyati	11	4
14	Toshkent shahar	50	16
Jami		235	96

Qonunning 33-moddasida Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun ish beruvchining moddiy javobgarligi "Ish beruvchi xodimning o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli uning hayoti va sog'lig'iga o'zi yetkazgan zararining o'rnini qonunchilikda belgilangan tartibda to'liq hajmda qoplashi shart" deb belgilab qoyilgan. Bunga ko'ra ish beruvchi, hodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda to'liq hajmda qoplashi kerak bo'ladi.

Misol uchun: baxtsiz hodisa oqibadi hodim vafot etgan taqdirda, to'lanadigan tovon puli miqdori quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$S \cdot 72 = T \quad (\text{formula})$$

Bu yerda: **S**-hodimning o'rtacha oylik ish haqi

T- birmartalik tovon puli

Agar hodimning o'rtacha oylik ish haqi 5mln bo'lsa uning tovon puli 360mln ni tashkil qiladi. Aksariyat holatlarda hodim yoki uning vakillari bunday huquqlaridan foydalanishmaydi.

Xulosa o'rnida aytish kerakki bugungi kunda qishloq xo'jaligidagi baxtsiz hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan birqancha omillarni mavjud. Albatta bu omillar ichida qonun va qonun osti hujjatlarni bilmaslik yoki amal qilmaslik ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Buning yechimi albatta hodimlar va ishberuvchilarning belgilangan tartibda o'qitish, qayta tayyorlash va bilimlarini tekshirishimiz kerak. Buning natijasida vujudga kelayotgan baxtsiz hodisalarni 40-50% oldini olishga erishishimiz mumkin. Bu metodni faqatgina ma'lum bir fermer xo'jaligi yoki tashkilotidagina emas balki qishloq



sharoitida yashovchi aholiga ham targ'ip qilib, o'rgatishimiz kerak va buning natijasida baxtsiz hodisalarni oldini olishga erishamiz.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni 2016-yil 22-sentabr 410-son.
2. Yormatov G, Mehnatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma.-Toshkent: "Mehnat", 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining "Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash to'g'risida"gi namunaviy nizomi 14.08.1996 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 272.
4. [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14-avgustda 272-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan]
5. Guide to Safety in Agriculture INTERNATIONAL LABOUR OFFICE GENEVA, 1969 printed by ATAR. GENEVA (SWITZERLAND)
6. Lex.uz
7. <https://www.researchgate.net/publication/303774682>
8. <https://www.epa.gov/agriculture/laws-and-regulations-apply-your-agricultural-operation-farm-activity>
9. <https://www.agro.uz/hujjatlar/>
10. Mehnat.uz
11. <https://t.me/MehnatMuhofazasiMaslahatMarkazi>
12. <https://t.me/nodira2007>